

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

## **“MARKSHEYDERLIK ISHI”**

**yo‘nalishi**

**“MARKSHEYDERLIK AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”**

**moduli bo‘yicha**

**O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A**

**Toshkent – 2022**

Mazkur ishchi o‘quv dastur Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** t.f.n., dots. Inogamov I.I.

**Taqrizchi:** t.f.d.,prof. R.SH.Naimova

Ishchi o‘quv dastur Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021-yil 29-dekabrda 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>9</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>15</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>38</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI .....</b>	<b>51</b>
<b>VI. GLOSSARIY.....</b>	<b>53</b>
<b>VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>54</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, energiya ishlab chiqaruvchi korxonalar va texnologiyalarning zamonaviy holati, rivojlanish tendensiyalari, energiya ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanishda birlamchi energiya manbaalari turlarini diversifikatsiya qilishning asoslari, energiya ishlab chiqarish texnologiyalari bo‘yicha rivojlangan xorij davlatlarining tajribalari, mobil axborot vositalari, marksheyderiyada sputnikli texnologiyalarni qo‘llash, er usti axborot texnologiyalari, konlarni ochik usulda kazishni marksheyderlik ta’minoti aktual muammolari va marksheyderlik ishlari anikligini tahlili bo‘yicha bilim kuo‘nikma va malakalarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Modulning **maqsadi** – marksheyderlik axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim. ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.

Modulning **vazifasi** – mobil axborot vositalari, marksheyderiyada sputnikli texnologiyalarni qo‘llash, er usti axborot texnologiyalari va konlarni ochik usulda

qazishni marksheyderlik ta'minoti aktual muammolarini bartaraf etishga qaratilgan masalalarni yoritib berish.

### **Modul bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar, malakalarga qo'yiladigan davlat talablari.**

**Kutilayotgan natijalar: Marksheyderlik ishi yo'nalishi "Marksheyderlik axborot texnologiyalari"** modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

#### **Tinglovchi:**

- GPS, GLONASS ma'lumotlarini;
- marksheyderlik s'emkalarining asosiy prinsiplari;
- global pozitsionlashtirish Amerika sun'iy yulduzlarini (GPS NAVSTAR);
- erni masofadan zondirlash turlarini;
- lazerli skanerlashning ahamiyatini
- mobil axborot texnologiyalari va hozirgi kunda dunyoning ilg'or davlatlarida ishlab chiqarilayotgan geodezik-marksheyderlik ulchash ishlarini avtomatlashtirilgan tizimlari xaqidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- marksheyderlik ishlarini amalga oshirish uchun mobil vositalardan foydalanish;
- geodezik va marksheyderlik ishlarida lazerli skanerlashdan foydalanish;
- operativ ma'lumotlarni olishda lazerli skanerlash usulidan foydalanish;
- global tizimning asosiy kursatkichlarini tahlil qilish;
- marksheyderlik ishlarini amalga oshirish uchun mobil vositalaridan foydalanish ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

#### **Tinglovchi:**

- WGS84 asosida real vakt birligida turgan urnini geodezik xisobga olish tizimida aniqlash;
- marksheyderlik burchak va chizikli ulchashlar va skanerlar yordamida konni uch ulchamli tasvirlarini hosil qilish;

- WGS84 asosida real vakt birligida turgan urnini geodezik hisobga olish tizimida aniqlash;
- global tizimning asosiy kursatkichlarini tahlil qilish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Tinglovchi:**

- oliy geodeziya, astronomiya, marksheyderiya yunalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib orish;
- ekspluatatsiya qilinayotgan ob'ektlarni kerakli koordinatalar va parametrlar bilan o'z vaqtida kerakli aniqlikda ta'minlashda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni qo'llash kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'likligi va uzviyligi**

“Marksheyderlik axborot texnologiyalari” moduli o'quv rejadagi “Konchilik huquqi asoslari” va “Elektron-optik va navigatsion marksheyderlik asboblari” modullari va boshqa fanlar bilan uzviy bog'lik. Bu o'quv rejadagi mavzular yuqorida qayd etilgan fanlarning mantiqiy davomi bo'lib, boshqa mutaxassislik fanlarini o'zlashtirish uchun zarur xisoblanadi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Respublikadagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini, pedagog – kadrlarning axborot texnologiyalari va mutaxassis fanlarni yanada yaxshi o'zlashtirish Konchilik ishi sohasida ta'lim berayotgan, malaka oshirayotgan professor o'qituvchilar makalasini mustaxkamlashga karatilgan.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№		Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Mobil axborot vositalari	4	2	2	
2.	Marksheyderiyada sputnikli texnologiyalarni qo'llash	6	4	2	
3.	Yer usti axborot texnologiyalari	6	2	4	
4.	Shtolnya o'rnini loyihadan ko'chirish va unga yo'nalish berish	2		2	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	

### NAZARIY TA'LIM MAZMUNI

#### 1-mavzu. Mobil axborot vositalari

Mobil axborot vositalari. Dunyo mamlakatlarida geodezik-marksheyderlik ulchashlarni avtomatlashtirilgan tizimlari. Geodezik-marksheyderlik ulchashlarni amaliyotga tadbiiq qilish. Oliy geodeziya, astronomiya, marksheyderiya yunalishlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar.

#### 2-mavzu. Marksheyderiyada sputnikli texnologiyalardan foydalanish

Geodezik-marksheyderlik burchak, chiziqli, azimutal ulchashlar va nivelirlash ishlari. Ekspluatatsiya qilinayotgan ob'ektlarni kerakli koordinatalar va parametrlar bilan o'z vaqtida kerakli aniqlikda ta'minlashda qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar.

#### 3-mavzu. Er usti axborot texnologiyalari

Operativ ma'lumotlarni olishda lazerli skanerlash usulidan foydalanish. YUzaning 3D modeli. Kon ishlarini marksheyderlik ta'minoti to'lik avtomatlashtirish tizimi.

### AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

#### 1-amaliy mashg'ulot. Marksheyderlik planlarda masala echish

Ochik kon ishlari kon-grafik xujjatlarini ukishni va marksheyderlik planlarda masalalar echishni urganish.

## **2- amaliy mashg‘ulot. SHTolnya urnini loyixadan joyga kuchirish va unga yunalish kursatish.**

Nazariy bilimlarni mustaxkamlash va marksheyderlik masalalarni echimini topish buyicha kunikma xosil kilish.

## **3 amaliy mashg‘ulot. Teskari geodezik kestirma usulida aniklangan syomka tarmogi punkti koordinatasini anikligini hisoblash va baxolash.**

Dala ulchash natijalarini xisoblab ularning masshtabi 1:2000 masshtabdagi kon laximlari syomkasini bajarish uchun ishonchligi xakida xulosa berish.

### **TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI**

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o‘quv material mazmuni ustida ishlayotganda o‘qituvchini tinglovchilar bilan o‘zaro harakatini tartiblashtirishni, yo‘lga qo‘yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o‘qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruza;
- amaliy mashg‘ulot.

O‘quv ishini tashkil etish usuliga ko‘ra:

- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o‘qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o‘quv maqsadiga erishish uchun o‘zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish



shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin.

*Bir turdagi guruhli isho'quv* guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

*Tabaqalashgan guruhli ish* guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**


### **“Venn diagramma” metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

## Namuna: Ulchash ishlarida qo‘llaniladigan asbob turlari bo‘yicha



### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**»– inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> </ul>

o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### **Keysni bajarish boskichlari va topshiriklari:**

- **Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).**
- **Zararli moddalar va zarrachalar ajralib chiqishini kamaytirish tadbirlari variantlarini muhokama qiling (juftliklardagi ish).**

### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-

ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4. «To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. SHundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.


6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

#### “ **AQLIY HUJUM.**”

Aqliy hujum uslubini birinchi bo'lib bundan bir necha o'n yillar oldin F.Osborn Aleks reklamasi orqali Batter, Barton, Dastin va Osborn firmalarida qo'llagan. Keyinchalik ushbu uslubdan yirik xalqaro korporatsiyalar ham foydalana boshlashgan. Respublikamizdagi ta'lim muassasalarida ushbu uslubdan 2000 yillardan boshlab foydalanila boshlandi.

#### «АҚЛИЙ ҲУЖУМ» методининг тузилмаси





### **“KICHIK GURUXLARDA ISHLASH” METODI.**

Ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruxlarga ajratgan xolda o’quv materiallarini urganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

### **INSERT JADVALI.**

Talabalarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishni, uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad qilish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog’lash qobiliyatlarini shakllantiradi. SHu sababli, ushbu uslub mavzu bo’yicha rejadagi mashg’ulotlar o’zlashtirilgach, talabalar mavzuga oid bilim va ko’nikmalarga ega bo’lgach qo’llaniladi. O’qituvchi mavzuning aniq mazmun va mohiyatini yoritib beradi va dars yakunida talabalarga ushbu mavzu bo’yicha “Insert” jadvali asosida uyda mustaqil ishlashlari uchun topshiriq beradi. Talabalar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o’z bilimlari, real hayotiy

tajribalari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

**Insert jadvali.**

V	+	-	?

«V» - ..... haqidagi bilimlarimga javob beradi;

«+» - ..... haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

«-» - ..... yangi ma'lumotlar;

«?» - ..... mavzuga oid tug'ilgan savollar.

***“O'lchash natijalari bo'yicha hisoblash va joyning topografik planini tuzish”***

mavzusi bo'yicha uyga aniq sharoitda bajarilgan gorizontal tasvirga olish ishlarining o'lchash natijalari aks ettirilgan ma'lumotlar matni beriladi. Ular “Gorizontal tasvirga olish ishlari” mavzusi yuzasidan olingan bilimlarini yordamida joyning planini tuzishadi va real sharoitda qo'llanilishi bilan taqqoslab jadvalni to'ldirib kelishadi.

***“O'lchash natijalari bo'yicha hisoblash va joyning topografik planini tuzish”***

V	+	-	?

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-MAVZU: MOBIL AXBOROT VOSITALARI

##### REJA:

- 1.Marksheyderlik ishlarini amalga oshirish uchun mobil vositalari
- 2.Global tizimning asosiy kursatkichlari
- 3.Marksheyderlik s'emkalarining asosiy prinsiplari.

**Kalit suzlar:** *ulchashlar, kosmik geodeziya, global kuzatuv tizimlari, GPS, GNSS, GLONASS, marksheyderlik ishlar, sun'iy yulduhli geodeziya*

##### 1.1.Marksheyderlik ishlarini amalga oshirish uchun mobil

Global pozitsionlashtirish Amerika sun'iy yulduhli (GPS NAVSTAR) kiradi. U WGS84 asosida real vakt birligida turgan urnini geodezik xisobga olish tizimida aniklashga imkon beradi. Undan foydalanish asosan navigatsion ilovalarni kuzatish bilan boglik.

Tizim uz ichiga uchta modul eki segmentlarni kiritadi:


- kosmik segment;
- boshkarish segmenti;
- tadkikot segmenti.<sup>1</sup>

Marksheyderiyada asosiy ulchash ishlari GPS texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. U sun'iy yulduh bilan priemnik orasidagi masofani ulchashga asoslangan. Bu sun'iy yulduhdan priemnikga yuborilgan signallarga va ularning texnik xarakteristikalariga boglik bulib, bevosita kushimcha ulchashlar orkali amalga oshiriladi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup>Gamarasca M.A. Basics of Geomatics.Springer. 2009. P. 411

<sup>2</sup>Boston, Louis F. Buff. High Grade Engineering, Surveying And Mining Instruments. Nabu Press. 2011,p.137-138




Rasm. 1. GPS va resiver.

Global pozitsionlash tizimi: minimum turtta sun'iy yuldush fazoviy geografik koordinatlarni aniqlash kerak.

### 1.2. Global tizimning asosiy kursatkichlari

GPSning maksadi strategik va iqtisodiy masalalarni echish buyicha butun dunyo navigatsion tizimini yaratishdan iborat.

Boshqa tadqiqot fanlari ichida lazerli skanerlash muxim ahamiyatga ega bulib, u asosida nisbatan tulik ma'lumotlarga ega bulish orkali yukori aniklikga va jarayonni avtomatlashtirishga erishiladi.



Rasm. 2. Uch o'lchamli lazerli skanerlash



Hozirgi kunda dunyoning ilg'or davlatlarida amaliyotga geodezik-marksheyderlik ulchash ishlarini avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chikmokdalar va amaliyotga tadbik kilmokdalar. Odatda uxshash tizimlar oliy geodeziya, astronomiya, marksheyderiya, elektron xisoblash vositalari, matematika, dasturlash va fazoni zabt etish doirasida ilmiy-texnik progress asosida barpo kilinadi.<sup>3</sup>

SHunday kilib, lazerli skanerlashmetodi fotogrammetriyaning bir necha aspektida evolyusiya kilib,u bevosita yuzaning 3D modelini beradi, odatda stereoskopik asboblarda ikki ulchamli tasvirlar xosil kilinar edi. SHunday kilib kon ishlarini marksheyderlik ta'minoti tulik avtomatlashtirish jarayoniga yakinla shtiriladi.

#### GPS kabul indikatorlariningasosiy xarakteristikalari

Kabul indikatorlar shifri	Firma nomi i\chikarga n (davlat)	Kanallar soni (chastota)	Koordinatlarni			Komplektning umumiy massasi, kg	Taxminiy narxi (ming. \$)
			Absolyut rejimda anikligi, m	nisbiy rejimda aniklash	kuzatish vaqti		
GPS WILD-	"Leyka"	9(2)	15	5+1-10 <sup>D</sup> mm	15-20 min	15-20	70
Sistem	(SHveysariya)						
Sersel	"Sersel"	5(2)	10-15	S+110 <sup>D</sup> m	10-20 min	40	65
TR5S	(Fransiya)						
Achtech XII	"Ashtek"	12(2)	20	3-5 mm	30 <sup>^</sup> 40 min	5	35
	(SSHA)						
4000 SST	"Trimbl"	8,12(2)	4	5+110 <sup>-D</sup> mm	15 min	15	35
	(SSHA)						
MX 4200D	"Magnovoks"	6(2)	10-15	2-5 sm	10 min	0,9	30
	(SSHA)						
Magellan	"Magellan"	5(1)	15-20	10-20 sm	10 min	0,85	11
	(SSHA)						

<sup>3</sup>Gamarasca M.A. Basics of Geomatics.Springer. 2009. P. 412

### **1.3.Marksheyderlik syomkalarining asosiy prinsiplari.**

#### **Marksheyderlik syomkalari haqida umumiy ma'lumot**

Kon sanoatida marksheyderlik syomkasi deb tayanch va syomka tarmoqlari punktlari koordinatalarini aniqlash uchun va marksheyderlik chizmalari tuzish uchun bajariladigan burchakli va chiziqli o'lchash ishlari yig'indisi tushuniladi. Foydali qazilma konlarini qazish uslubini, ularning kon geologik sharoitlarini aniqlab beradi.

Foydali qazilma konlarini er osti usulida qazishda marksheyderlik syomkalari konga ajratilgan maydon yuzasida va er ostida bajariladigan orientirlash bog'lash syomkalarini yig'indisidan iborat.

Er ostida va er ustida bajariladigan syomka ishlari natijasini solishtirish uchun syomkalar yagona koordinatalar tizimida bajarilishi kerak.

Marksheyderlik chizmalarini syomka materiallari asosida 1:5000, 1:500 masshtablarida bajariladi.

Er osti marksheyderlik syomkalari obektlari bo'lib birinchi navbatda kon lahimlari va shaxta maydoni chegaralari hisoblanadi. Chunki ba'zi bir lahimlar uzoq muddat o'zgarmay tursa boshqalari buziladi yoki qazish ishlari olib borilib davom ettiriladi.

Har qanday kon lahimlarini o'tishda ish joyi doimiy ravishda o'zgarib turadi. SHu munosabat bilan uning o'rnini marksheyderlik chizmalarida ko'rsatib borish uchun doimiy syomka qilish va hujjatlarni to'ldirib borish shart. SHuningdek syomka obektlari bo'lib qidiruv lahimlari bilan kon lahimlari kesishgan joylari qazilma boylik qatlami ostki va shift qismlari, siljish zonalari, yoriqliklar va boshqalar hisoblanadi. Syomka natijalari kon lahimlari planiga va geologik kesmalarga tushiriladi. Ulardan kon sanoatini marksheyderlik ta'minlash uchun yirik injenerlik masalalari echishda qo'llaniladi.

Er osti marksheyderlik syomka obektlaridan yana biri bu boylikni kon geologik jihatdan karakterlovchi nuqtalarni va zonalar (proba olish nuqtalari) syomka natijalari bo'yicha marksheyderlik chizmalarida qazilma boylik qatlamini o'lchash joylari, kon lahimlari bilan qidiruv skvajina ochilgan nuqtalar va boshqalar ko'rsatiladi.

Qo'llanishi va o'lchash uslubi bo'yicha er osti marksheyderlik syomkalarini asosiy qurilmalari e'tiborga loyiq va ular quyidagilardan iborat:

1. Er osti teodolit syomkalari.
2. Orientirlash bog'lash syomkalari.
3. Er osti vertikal syomkalari.
4. Kesma va qazilma lahimlarini syomkalari.
5. Kon lahimlarini o'lchash ishlari.

*Er osti teodolit syomkalarida* kon lahimlarida maxsus belgilar bilan mustahkamlab quyilgan punktlarning X, Y koordinatalarini aniqlash uchun burchakli va chiziqli o'lchash kompleksi bajariladi. Er osti teodolit syomka natijalarini marksheyderlik grafik hujjatlarini tuzish uchun geometrik asos bo'lib xizmat qiladi va ulardan kon ishlarini marksheyderlik ta'minlash uchun qator injenerlik masalalari echiladi.

Orientirlash bog'lash syomkalari er osti syomkalari bilan er usti syomkalari o'rtasida geometrik aloqa o'rnatib uning yordamida er osti kon lahimlari va undagi punktlarning o'rnini yagona koordinata sistemasida ya'ni yassi to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida aniqlashga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida kon lahimlari planini er yuzasi plani bilan bog'lashga imkon berib analitik masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Er yuzasidan kon lahimlariga uzatilgan direksion burchak va X, Y koordinatalar er osti teodolit syomkalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni kon lahimlarida syomka tarmoqlari orientirlash bog'lash syomka natijasi asosida barpo qilinadi.

*Er osti vertikal syomkalari* er osti obektlari va undagi punktlar o'rnini qabul qilingan balandlik sistemasida Z koordinatasini balandligini aniqlashga imkon beradi. Er osti vertikal syomkasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: kon ishlari gorizontiga er yuzasidan koordinata Z ni uzatish (vertikal bog'lovchi syomka), lahimlarda geometrik nivelirlash va qiyaligi  $6^{\circ} - 8^{\circ}$  dan katta bo'lgan lahimlarda trigonometrik nivelirlash bajariladi.

*Kesma va qazish lahimlari syomkasi* tabiiy sharoitlarda bajarilib odatda aniqligi kichik bo'lgan asboblardan yordamida bajariladi (bussol, uglomer). Ularning natijalarida grafik hujjatlarni to'ldirishga va ba'zi masalalarni hal qilishda ishlatiladi.

*Kon lahimlarini o'lchash* natijasida kon lahimlari konturini, zaboylarni yaqin joylashgan er osti syomka punktlarga bog'lashga imkon beradi. O'lchash natijalari marksheyderlik chizmalarini to'ldirishga va qazib olish hajmini aniqlashga ishlatiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Mobil vositalariga nimalar kiradi?
2. Mobil vositalarining vazifalari nimalardan iborat?
3. Mobil vositalardan nima maksadda foydalanish mumkin?
4. Mobil vositalari turlari.
5. Mobil vositalarining anikligi.

### **Adabiyotlar:**

1. A.M.Galperinidr. - M. : Gornaya kniga, 2012. - 336 s. - (Oxrana okrujayushey sredi).
2. SHestakov B.A. Proektirovanie gornix predpriyatiy. Uchebnik. M.: MGGU, 2003. - 800 s.
3. Peshkova M.X. Ekonomicheskaya otsenka gornyx proektov. M.: MGGU, 2002. - 422 s.
4. Egorov P.V., dr. Podzemnaya razrabotka mestorojdeniy poleznix iskopaemix. M., MGGU, 2002. -217 s.
5. Arens V.J. Osnovi metodologi gornoy nauki. M.: MGGU, 2003.-223 s.

## 2-MAVZU. SPUTNIKLI TEXNOLOGIYALARNI MARKSHEYDERIYADA KULLASH.

### REJA:

- 1.Sputnikli texnologiyalarning imkoniyatlari;
- 2.Sun'iy yulduz tizimi turlari.

#### 2.1.Sputnikli texnologiyalarning imkoniyatlari.

YUkorida bayon kilinganday, kompyuter texnikasi va radioelektronikaning rivojlanishi, er yuzasi orbitasiga sun'iy yulduzlarni chikarilishi er yuzasidagi nuqtalarnig koordinatalarini global tizimga asoslangan yukori aniklikdagi progressiv metodlarda aniklash imkonini yaratdi.

Kursatkichlar	GPS	"Glonass"
Aktiv sun'iy yulduzlar soni	24	24
Sun'iy yulduzni ayl.davr	12 ch	11 ch 15 min
Ogishi	54°	65°
Orbital ma'lumotlarni Uzatish bir marta	v 1 ch	v 55 min
Vaktni sinxronizatsiyalash	UTC (SSHA)	UTC

Bu tizimlardan sunggi davlarda kuppina dunyo davlatlarining sanoat soxalarida kullanishi tezkorlik bilan rivojlanib bormokda.

Xozirgi kunda global tizimlarning ikki kurinishi mavjud: "Glonass" va "Navstar" (SSHA). Rossiya "Glonass" tizimidan tinchlik maksadlarida foydalanish kuzda tutilgan bulib, u uz ichiga 24ta urning sun'iy yulduzlarni kiritadi. Ballistik tuzilishi va taktik-texnik ma'lumotlari buyichakup yillardan buyon ishlab kelayotgan mavjud amerika "Navstar" tizimi xarakteristikalariga juda yakin. Sun'iy yulduz axborotlarini kabul kilishni rivojlanish darajasi er yuzidagi nuqtalarning koordinatalarini anik fiksatsiya kilish imkonini beradi, bu esa sun'iy yulduzli texnologiyalarni samaradorligini xarakterlaydi.<sup>4</sup>

Rossiyaning "Glonass" asbobi ogirligi 5-10 kg bulib u turli sharoitlarda foydalanishga muljallangan. Rossiyada seriyali ravishda A-72-4M-01 sun'iy yulduzli

---

H<sup>4</sup> Boston, Louis F. Buff. High Grade Engineering, Surveying And Mining Instruments. Nabu Press. 2011,p.138-139

navigatsion kabul indikatorlari ishlab chikarilmokda. Uning yordamida koordinatalar qiymati absolyutnom rejimda 16-21 m aniklikda topiladi.. Boshlangich punktdan 10 do 100 km masofada joylashgan punktlar uchun 2-3 soatli kuzatish seansida 1,5-2,5 m aniklikga erishish mumkin.

AKSHning "Navstar" tizimi ishonchligi, anikligi va dizayni buyicha 1-2 darajaga "Glonass" tizimidan ustun turadi. "Navstar" kabul indikatorlari bozori AKSH, Garbiy Evropa va YAponiyaning 200 firmasi tomonidan ishlab chikarilayotganligi munosabati bilan kun sayin kengayib bormokda.

Amerika tizimi xam xuddi Rossiya tizimi kabi uch segmentdan: boshkarish segmenti, kosmik va er yuzasidagi segment.



1. GLONASS tizimi xakida ma'lumotlar.
2. NAVSTAR tizimi xakida ma'lumotlar.

Har qanday o'lchash ishlarida xato bo'lganidek marksheyderlik o'lchash ishlarida ham xatoliklar bo'ladi. O'lchashda hosil bo'ladigan xatoliklar qo'pol, sistematik, yoki tasodifiy qilingan xatoliklardan iborat bo'ladi.

Sistematik xato turli omillarga bog'liq bo'lib bir xil qilingan xatoni o'lchashda qaytarilib borishi oqibatida hosil bo'ladi. Bular o'lchash asbobining noaniqligi havo temperaturasining ta'siri va o'lchovchining malakasiga bog'liq bo'ladi.

Qo'pol xatolar o'lchovchining malakasizligi va e'tiborsizligi oqibatida kelib chiqadi.

Qolgan kutilmagan xatolar tasodifiy xatoga kiradi.

O'lchash ishidagi xatolikni  $\delta = \ell - x$  (1) bilan aniqlash mumkin. Bu erda  $\ell$  - o'lchash natijasi,  $x$  - o'lchangan kattalikning aniq qiymati.

O'lchash natijalari katta miqdorda bo'lsa quyidagicha hisoblanadi:  $|\delta| = |\ell| - n \cdot x$  (2). Bu ifodaning ikkala tamoni  $n$  ga bo'lsak quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$x = \frac{|\ell|}{n} - \frac{|\delta|}{n} \quad (3).$$

Tasodifiy xatolarning xossalari hisobga olsak quyidagi hosil bo'ladi:

$$x = \frac{|\ell|}{n} \quad (4).$$

YA'ni o'lchash natijalarining o'rta arifmetik miqdorlari haqiqiy qiymatga yaqin hisoblanadi.

Lekin o'rta arifmetik xato o'lchash aniqligini to'liq ko'rsatmaydi. SHuning uchun o'lchash ishlarini aniqligini baholash uchun o'rta kvadratik xatodan foydalaniladi. U quyidagicha:

$$m = \sqrt{\frac{[\delta\delta]}{n}} \quad (5).$$

Bu formula o'lchash soni katta bo'lganda to'g'ri keladi. Agar o'lchash soni chegaralangan bo'lsa u holda xatolik quyidagicha hisoblanadi:

$$m_m = \frac{m}{\sqrt{2n}} \quad (6).$$

O'rta kvadratik xatoning hosil bo'lish ehtimolini  $m$  desak u yuztadan 32 tasida bo'lishi mumkin.

Agar  $2m$  desak tasodifiy xato 100 tadan 5 tasida bo'lishi mumkin,  $3m$  ga teng desak 1000 tadan 3 tasida bo'lishi mumkin. Demak o'rta kvadratik xatoning uchlangan qiymatini hosil bo'lishi ehtimoli juda kichik. Odatda yo'l qo'yarli tasodifiy xato qiymatini o'rta kvadratik xatoning ikkilangan qiymati qabul qilingan.

O'lchash ishlarini bajarishda amal qilayotgan marksheyderlik o'lchash ishlari yo'riqnomasi talablariga rioya qilish kerak.

Marksheyderlik ishlarini bajarishda asosiy talablardan biri o'z vaqtida kontrol va xatolikni vaqtida topib joyida bartaraf qilish hisoblanadi. Bunday kontrol dala

kantrolli deyiladi. Buning uchun ikki nuqta oralig'i eng kamida ikki marta o'lchanadi. Gorizontall burchak o'lchashda esa kontrol burchak o'lchanadi.

### **Marksheyderlik syomkalarining geometrik asosi**

Alohida nuqtalarning er osti va er ustida  $z$  koordinatalarini aniqlash uchun Kronshtadt futshokiga nisbatan o'lchash ishlari olib boriladi.

Marksheyderlik tayanch tarmoqlari er ustida hosil qilingan davlat geodezik punktlari asosida barpo qilinadi. Er yuzasida tayanch tarmoqlari triangulyatsiya va poligonometriya, trilatigratsiya usullarida barpo etiladi.


Er osti marksheyderlik syomkalarida gorizontall teodolit syomkaning o'rni katta bo'lib kon lahimlarida maxsus o'rnatilgan belgilarni koordinatalarini aniqlash uchun burchakli va chiziqli o'lchash ishlari olib boriladi.

Er osti kon lahimlari cho'ziq bo'lganliklari sababli poligonometrik usuldan ko'proq foydalaniladi.

Er osti kon lahimlarida teodolit yo'llari o'tkazishda teodolit bilan quyidagilar o'lchanadi: yo'lning ikki tamon oraliq gorizontall burchagi, qiyalik burchagi, tamonlar uzunliklari o'lchanadi. SHu bilan birga er osti burchak o'lchash yo'llari ularning tadbiiq qilinishi bo'yicha poligonometrik yoki teodolit yo'llari deyiladi.

Har bir poligon (yo'l) avval bajarilgan syomka punktlariga bog'lanadi. Poligon shakli va uning syomka punktlariga bog'lash uslubi bo'yicha quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Osmal ozod bo'lgan yo'l – koordinatalari berilgan bitta punktga va direksion burchagi ma'lum tamonga tayangan bo'ladi.



**1-rasm.**


2. Ikkilamchi osma yo'l - yo'lni o'tish yo'qoriga o'xshash bo'lib faqat ba'zi tamonlar to'g'ri va tesksari yo'nalishda o'tgan bo'ladi.





**2- rasm.**

3. Girotomon seksiyalarga bo'lingan osma yo'l – yo'lning seksiyalarga bo'linishi tamonlarning uzunligiga va talab qilingan aniqligiga bog'liq bo'ladi.




**3- rasm.**

4. Ozod bo'lmagan osma yo'l – yo'l boshida va oxirida bo'lgan ikkita boshlang'ich punkt va tamonlarga tayangan bo'ladi.




**4- rasm.**

5. Ozod bo'lmagan girotomon seksiyalariga bo'lingan osma yo'l – yo'lning uzunligi va tadbiiq qilinishiga asosan to'liq kontrol bilan o'tkaziladi.




**5- rasm.**

6. Ozod berk yo'l – koordinatalari ma'lum bo'lgan bitta punktga va direksion burchagi ma'lum bo'lgan tamonga tayangan bo'ladi.




**6- rasm.**

7. Girotomon seksiyalariga bo'lingan ozod berk yo'l – yo'lning murakkabligi va uzunligiga bog'liq.



**7- rasm.**

8. Yo‘l boshi va oxirida koordinatalari ma’lum bo‘lgan punktga tayangan ozod bo‘lmagan osma yo‘l. YA’ni boshlang‘ich tamon direksion burchagi berilmagan bo‘lsa nazorat berk yo‘lining uzunligi bo‘yicha va burchaklar yig‘indisi orqali bajariladi.



**8- rasm.**

chizmada:  $\square$  – berilgan punkt,  $=$  - direksion burchagi ma’lum bo‘lgan tamon,  $==$  - girotomon, direksion burchagi girokompos yordamida aniqlanadi.

### **2.2.Sun‘iy yuldosh tizimi turlari.**

Er osti teodolit poligonlari o‘zaro bog‘lanishi orqali yirik shaxtalarda murakkab tarmoqlarni hosil qiladilar. Er osti kon lahimlarini syomkalarida xuddi er ustidagi syomka kabi umumiy bo‘lgan aniq geometrik tarmoqlardan aniqligi kichik bo‘lgan tarmoqlarni barpo qilish prinsipiga amal qilinadi. Ushbu protses quyidagi ishlardan iborat:

1. Kapital va asosiy kon lahimlardan o‘tadigan poligonometrik yo‘llar va er osti syomkalariga geometrik asos bo‘lib xizmat qiladigan marksheyderlik tayanch tarmoqlarini barpo qilish.
2. Teodolit va burchak o‘lchash yo‘llaridan iborat bo‘lgan kon lahimlari syomkasi uchun zarur bo‘lgan marksheyderlik syomka tarmoqlarini barpo qilish. Teodolit yo‘llari kapital va asosiy tayyorlov lahimlarida to‘ldiruvchi syomkalarni bajarish uchun tavsiya qilinsa, burchak o‘lchash yo‘llari esa qazish kovjoylarida va kesma lahimlarda syomka qilish uchun foydalaniladi.

Teodolit yo‘llari tayanch punkti va tamonlariga bog‘lansa burchak o‘lchash yo‘llari poligonometrik va teodolit yo‘llari punktlariga tayanadi. Burchak o‘lchash yo‘llari o‘tkazishda aniqligi past asboblardan foydalaniladi (uglomer, bussol).

Maxsus tarmoqlar o‘ta muhim masalalarni hal qilishga ishlatiladi. Masalan: muhim lahimlarni o‘tkazishda bunday holatlarga burchakli va chiziqli o‘lchash

aniqliklari har bir holat uchun alohida ishlab chiqilgan dastur bo'yicha aniqlanadi. O'lchash natijalari ko'p hollarda shartli koordinatalar sistemasida hisoblanadi.

Syomkani bajarish shartlariga ko'ra va kon lahimlarida geometrik asos punktlarining saqlanishiga qarab uchta asosiy guruhga bo'linadi.

**1.** Shaxta va ruda maydonidan o'tgan asosiy magistral hisoblangan kapital va asosiy lahimlar. Ularga: shtolnya, kapital kvershlag, dala va asosiy shtreklar, bremsberglar va qiya lahimlar kiradi. Bu lahimlar odatda katta uzunlikka ega bo'lib, xizmat qilish davrlari katta. Ularda er osti tayanch tarmoqlari punktlarini mahkamlash qulay hisoblanadi.

**2.** Tayyorlov lahimlari. Bular: panelda o'tgan oraliq, ventilyatsion shtreklar va boshqa lahimlar hisoblanadi. Ular qazish uchastkalarida joylashgan bo'lib etarli darajada uzun emas va xizmat qilish davrlari nisbatan kichik. Bunday lahimlarda joylashgan punktlardan qazish kovjoylarini doimiy syomka qilib turishda asos sifatida qo'llaniladi.

**3.** Kesma lahimlar. Bular: qazish uchastkalaridan yoki qazish bloklaridan o'tadi. Uzunligi kichik bo'lib xizmat qilish davri ham kichik qazish kovjoylari, masalan lava doimo o'rni o'zgarib turadi. SHuning uchun bu erdagi punktlardan atigi bir marta ularni syomka qilishda foydalaniladi.

**Er osti tayanch tarmoqlari.** Ular tizim shaklida yoki alohida poligonometrik yo'l shaklida barpo qilinib stvol oldi lahimlarida mahkamlangan boshlang'ich doimiy punktlardan boshlab rivojlantiriladi. Tayanch tarmoqlari tarmoqning uzunligidan qat'iy nazar uzoqlashgan punktlarning o'rnini talab qilingan aniqlikda aniqlashni ta'minlashi kerak. Bu erda punktlarni mahkamlash 300 – 500 metrdan masofasi oshmasligi kerak.

Er yuzasidagi tayanch tarmoqlariga nisbatan er osti marksheyderlik tayanch tarmoqlari uch guruhga bo'lingan va alohida ularning farqlari bor.

**Birinchi** guruhga quyidagilar kiradi: a) tarmoqlarning rivojlanishi kon lahimlari o'tilishiga va shaxta rudniklarining xizmat qilish davriga bog'liq. b) eski lahimlarning berkitilishi bir qancha punktlarning mustahkammassligi oqibatida tarmoq

konstruksiyasi doimiy o'zgarishda bo'ladi. Tarmoqda bir qancha bog'liq bo'lmagan qo'shimcha fazoviy va vaqt bo'yicha ma'lumotlarning paydo bo'lishi hisoblanadi.

Yo'qoridagi omillar ta'siri natijasida er osti tayanch tarmoqlari rivojlantiriladi va rekonstruksiya qilinadi. Kon lahimlarini o'tilishi munosabati bilan tarmoq to'ldirilsa tarmoq holatiga qarab rekonstruksiya vaqti aniqlanadi.

Er osti tayanch tarmoqlarining ko'rinishi **ikkinchi** guruhiga quyidagilar kiradi:

a) poligon parametrlari va shakllarini tanlashni chegaralaydigan poligonometrik yo'llarning majburiy konfiguratsiyasi. b) er osti poligonometrik yo'llarida majburiy qisqa tamonlarning bo'lishi (3-5 m).

d) er osti poligonometriyasi boshlang'ich punktlarining soni chegaralanganligi va ularning imkoni boricha shaxta maydoni markazidajoylashganligi bu hammasi er osti tayanch tarmoqlarini boshlang'ich punktlardan uzoqlashgani sari xatolarning tez yig'ilib borishiga sabab bo'ladi. Uzoqlashgan punktlarning talab qilingan aniqligini oshirish uchun tarmoqlarga talabni kuchaytirish lozim. Buning uchun poligonometrik yo'llarni girokompos yordamida direksion burchaklarini aniqlash va girotomon seksiyalarini barpo qilish effektiv chora hisoblanadi.

Er osti tayanch tarmoqlari qurishning **uchinchi** guruhiga quyidagilar kiradi:

a) tayanch tarmoqlari qurishdan oldin teodolit yo'llari o'tkaziladi. Poligonometrik yo'l va teodolit yo'llari uchun bitta asbob va bir o'lchash usullaridan qo'llaniladi.

Shu sababli amalda qator holatlarda poligonometrik yo'llari tayanch tarmoqlari va teodolit yo'llariga bo'linmaydi. SHu bilan birga asosiy va tayyorlov lahimlarining syomkasi poligonometrik yo'llarni o'tqazish orqali bajarilib mustahkam va yaxshi saqlangan belgilaridan tayanch tarmoqlarini to'ldirishga zarur holatlarga nazorat uchun qayta yo'l o'tkaziladi. SHuning uchun poligonometrik yo'llar to'ldiruvchi va nazorat (kantrol) yo'llariga bo'linadi. Bu planli teodolit syomkalarini bajarishda texnik asboblarning burchakli va chiziqli o'lchashlarning umumiy ko'inishga egaligini ko'rsatadi.

Tayanch tarmoqlari turlicha bo'lib u konni ochish sxemasiga shaxta maydonining tayyorligiga qazilma boylik qatlamining yotish sharoitlari va

shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Er osti tayanch tarmoqlari kon ishlarini perspektiv rejasini hisobga olgan loyihalar asosida barpo qilinadi. Tayanch tarmoqlari har 5 – 10 yilda rekonstruksiya qilinadi. Buning uchun quyidagi holatlar asos bo‘lishi mumkin.

- syomka ishlarini davom ettirish uchun doimiy punktlarning mustahkamligini buzilishi.
- tarmoqda er yuzasidagi tayanch tarmog‘i bilan bog‘liq yangi punktlarning hosil bo‘lishi.
- shaxta gorizontlari tarmoqlarini bir – biriga bog‘lash zarurati hosil bo‘ladi.
- kon lahimlarining uzunligi ko‘payishi asosida aniqlikning kamayishi hollari sabab bo‘lishi mumkin.

Er osti teodolit yo‘llari quyidagi maqsadlarda o‘tkaziladi:

- kon lahimlarini syomka qilish va marksheyderlik chizmalarini chizish.
- kelajak syomkalari uchun geometrik asos barpo qilish.
- bajarilgan syomkalar nazoratini bajarish uchun.

#### **Nazorat savollari:**

1. NAVSTAR tizimi xakida ma’lumotlar.
2. Axborot tizimi necha segmentdan iborat?
3. Boshkarish segmenti vazifalari.
4. Kosmik segment vazifalari.
5. Er yuzasi segmenti vazifalari.
6. Qanday o‘lchash xatolari bor?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boston, Louis F. Buff. High Grade Engineering, Surveying And Mining Instruments. Nabu Press. 2011, p.137-142
